

# Единый портал корпоративной информации

## Объявления

"O'zagrosug'urta" AJ

Объявление

"O'ZAGROSUG'URTA" AKSIYADORLIK JAMIYATI

### **«O'zagrosug'urta» AJ aksiyadorlari diqqatiga!**

«O'zagrosug'urta» aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida ma'lum qiladi.

Jamiyatning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili): «O'zagrosug'urta» aksiyadorlik jamiyati Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni-5.

Yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy: 2017-yil 30-iyun soat 15:00, Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni-5, manzilidagi «O'zagrosug'urta» AJ majlislar zalida.

Jamiyat aksiyadorlari reyestri tuziladigan sana:

- aksiyadorlarni xabardor qilish uchun – 19.06.2017 yil;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish uchun – 26.06.2017 yil.

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat Boshqaruv raisining 2016 yil biznes-rejasining asosiy ko'rsatkichlarini bajarilishi yuzasidan hisobotini tasdiqlash.
4. Jamiyat Kuzatuv kengashining 2016 yil yakunlari bo'yicha o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan hisobotini eshitish.
5. Jamiyatning 2016 yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra jamiyatning taftish komissiyasi xulosasini eshitish.
6. Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi va korporativ boshqaruv Kodeks tavsiyalariga rioya qilinishining mustaqil baholanishi natijalari yuzasidan hisobotini eshitish.
7. Jamiyatning 2016 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zarari hisoblari bo'yicha hisobotini tasdiqlash.
8. Jamiyatning 2016-yil yakuni bo'yicha sof foydasini taqsimlanishini tasdiqlash.
9. Aksiyadorlar yoki uning qonuniy huquqiy vorisi, yoxud merosxo'ri da'vo qilish uchun belgilangan muddatda talab qilib olinmagan dividendlarini jamiyat foydasiga o'tkazilishi to'g'risida.
10. Jamiyatning 2017 yil uchun yillik biznes-rejasini tasdiqlash.
11. Jamiyatning Boshqaruv raisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatini uzaytirish to'g'risida.
12. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash.
13. Jamiyatning Taftish komissiyasi a'zolarini saylash.
14. Jamiyatning Ustavini yangi tahrirda tasdiqlash.

15. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish va uni yangitdan tasdiqlash.
16. Jamiyat Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va ijroiya organi a'zolariga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash.
17. Jamiyatning affillangan shaxslar bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan hamda yirik bitim (bitimlar) ro'yxatini aniqlash va tasdiqlash.
18. Jamiyatning "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi" "Kuzatuv kengashi to'g'risidagi", "Taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi", "Ijroiya organi to'g'risidagi", "Axborot siyosati to'g'risidagi", "Ichki nazorat to'g'risidagi", "Dividend siyosati to'g'risidagi", "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" Nizomlarini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga doir axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni-5, joylashgan «O'zagrosug'urta» AJning binosida tanishish mumkin. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@agros.uz, veb sayti: www.agros.uz. ([http://www.agros.uz./](http://www.agros.uz/))  
Telefonlar: 239-41-49.

Aksiyadorlar va ularning vakillari 2017 yil 30-iyun kuni soat 14.00 dan 14.55 gacha ro'yxatdan o'tkaziladilar. Aksiyadorlardan shaxsini tasdiqlovchi hujjatga, aksiyador vakilidan qonunchilikka asosan rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ega bo'lishlari so'raladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi

([http://agros.uz/media/filer\\_public/47/ac/47ac69b0-a013-4537-ae6c-f91b5a2b71dd/1\\_kun\\_tartibi\\_30\\_06\\_2017\\_iil\\_14\\_06\\_2017.pdf](http://agros.uz/media/filer_public/47/ac/47ac69b0-a013-4537-ae6c-f91b5a2b71dd/1_kun_tartibi_30_06_2017_iil_14_06_2017.pdf))

19.06.2017

---

Источник: <http://openinfo.uz/ru/announce/2586/>

Дата: 17.06.2020